

**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



# **TOSHKENT VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING  
YANVAR-DEKABR OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
**25 994,9 mlrd. so'm**



Xizmatlar sohasida kichik biznesning  
ulushi – **68,6 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – **8 763,7 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 797,5** mlrd. so'mga oshib, **25 994,9** mlrd. so'mga yetdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,2 %**ni tashkil etdi. O'tgan yili ushbu ko'rsatkich **117,8 %**ga to'g'ri kelgan.

Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma’lum daqiqalarda, ma’lum vaqt oralig’ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o’lchadigan, hisoblangan ko’rsatkichlar.

2021- yil dekabr oyiga nisbatan (**2 101,1** mlrd. so‘m), 2022- yil dekabr (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (**2 731,3** mlrd. so‘m) **630,2** mlrd. so‘mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil dekabr oyidagi xizmatlar hajmi 2020- yil dekabriga nisbatan **467,5** mlrd. so‘mga oshgan.

### Ko’rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so‘m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlar egallaydi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **33,4** %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**22,9** %), moliyaviy xizmatlari (**13,4** %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**4,0** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**3,2** %)da qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da (2022- yil yanvar-dekabr)








2022- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish boshqa xizmatlar (**49,9 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**28,0 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**27,5 %**), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**26,8 %**)da qayd etildi.

Aksincha, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (**39,9 %**)da pasayish qayd etildi.

### 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, %da





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, %da
	2021- y.	2022- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>21 197,4</b>	<b>25 994,9</b>	<b>113,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	655,2	844,1	128,0
Moliyaviy xizmatlar	2 675,2	3 473,6	128,6
Transport xizmatlari	5 186,0	5 946,4	107,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>4 856,6</i>	<i>5 513,9</i>	<i>106,1</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	837,3	1 039,5	108,9
Savdo xizmatlari	6 889,5	8 690,1	112,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	661,2	816,6	115,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	512,6	710,1	127,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	472,7	659,1	126,8
Ijara xizmatlari	648,0	796,5	115,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	444,2	570,1	112,9
Shaxsiy xizmatlar	615,0	777,1	108,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	919,1	588,5	60,1
Boshqa xizmatlar	681,4	1 083,2	149,9



Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.

Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.


Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.




33.4

2022-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati,**  
**%da**



**Xizmatlar hajmi,**  
**mlrd. so'm**






Hozirgi vaqtda Toshkent viloyatida dengiz hamda havo transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Viloyatda davlat hududi bo'ylab kesib o'tadigan temir yo'l tarmog'i mavjud. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tarmog'i ham rivojlangan.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **5 946,4** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **7,1** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **22,9** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*








# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'sish  
sur'ati, %da



Xizmatlar  
hajmi,  
mlrd.  
so'm



Transport xizmatlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	242,5	112,4
Olmaliq shahar	412,6	121,1
Angren shahar	389,4	116,1
Bekobod shahar	326,8	118,1
Ohangaron shahar	97,8	114,7
Chirchiq shahar	444,9	115,2
Yangiyo'l shahar	260,7	114,2
Oqqo'rg'on tumani	118,5	114,0
Ohangaron tumani	96,4	114,6
Bekobod tumani	166,7	115,8
Bo'stonliq tumani	329,4	121,9
Bo'ka tumani	120,5	113,8
Quyi Chirchiq tumani	278,7	119,0
Zangiota tumani	466,2	120,7
Yuqori Chirchiq tumani	397,9	120,8
Qibray tumani	383,2	73,1
Parkent tumani	292,4	116,4
Piskent tumani	148,3	113,7
O'rta Chirchiq tumani	153,2	117,0
Chinoz tumani	177,9	118,5
Yangiyo'l tumani	397,6	113,8
Toshkent tumani	244,8	121,2




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmi **5 513,9** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,1** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,2** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*






Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-dekabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **798,4** mlrd. so'mga oshdi va **3 473,6** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **13,4** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **128,6** %ni tashkil etdi.


O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %da**  
(2022- yil yanvar-dekabr)



1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	160,3	119,2
Olmaliq shahar	344,3	128,4
Angren shahar	267,5	123,1
Bekobod shahar	178,1	125,2
Ohangaron shahar	57,0	121,6
Chirchiq shahar	372,3	122,1
Yangiyo'l shahar	135,5	121,1
Oqqo'rg'on tumani	70,9	120,9
Ohangaron tumani	38,9	121,6
Bekobod tumani	199,2	122,8
Bo'stonliq tumani	365,0	129,3
Bo'ka tumani	64,7	120,7
Quyi Chirchiq tumani	119,9	126,2
Zangiota tumani	333,0	127,9
Yuqori Chirchiq tumani	101,9	128,1
Qibray tumani	161,6	103,3
Parkent tumani	120,8	123,5
Piskent tumani	65,1	120,6
O'rta Chirchiq tumani	50,3	124,1
Chinoz tumani	130,8	125,7
Yangiyo'l tumani	79,5	120,7
Toshkent tumani	57,0	128,5

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da  
(2022- yil yanvar-dekabr)**



**O'sish sur'ati,  
%da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**







## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	43,4	119,6
Olmaliq shahar	42,5	128,9
Angren shahar	42,7	123,5
Bekobod shahar	25,4	125,6
Ohangaron shahar	14,6	122,1
Chirchiq shahar	49,5	122,5
Yangiyo'l shahar	15,9	121,5
Oqqo'rg'on tumani	29,4	121,3
Ohangaron tumani	28,1	122,0
Bekobod tumani	42,5	123,2
Bo'stonliq tumani	50,9	129,7
Bo'ka tumani	27,8	121,1
Quy Chirchiq tumani	32,9	126,6
Zangiota tumani	83,4	128,4
Yuqori Chirchiq tumani	33,8	128,5
Qibray tumani	27,6	102,7
Parkent tumani	36,1	123,9
Piskent tumani	29,7	121,0
O'rta Chirchiq tumani	47,4	124,5
Chinoz tumani	38,2	126,1
Yangiyo'l tumani	54,2	121,1
Toshkent tumani	48,1	128,9

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Bo'stonliq tumani (**29,7 %**), Toshkent tumani (**28,9 %**), Olmaliq shahar (**28,9 %**) hamda Yuqori Chirchiq tumani (**28,5 %**)da qayd etildi.


Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Qibray tumanida kuzatildi – **2,7 %**.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)

O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	18,6	110,7
Olmalik shahar	76,1	119,3
Angren shahar	39,9	114,4
Bekobod shahar	23,7	116,3
Ohangaron shahar	10,6	113,0
Chirchiq shahar	174,3	113,4
Yangiyo'l shahar	27,6	112,5
Oqqo'rg'on tumani	7,4	112,3
Ohangaron tumani	5,1	112,9
Bekobod tumani	9,0	114,1
Bo'stonliq tumani	13,7	120,1
Bo'ka tumani	9,0	112,1
Quyichirchiq tumani	11,7	117,2
Zangiota tumani	165,7	118,8
Yuqori Chirchiq tumani	17,9	119,0
Qibray tumani	32,1	66,4
Parkent tumani	17,3	114,7
Piskent tumani	5,8	112,0
O'rta Chirchiq tumani	7,1	115,2
Chinoz tumani	9,9	116,7
Yangiyo'l tumani	7,0	112,1
Toshkent tumani	20,7	119,4




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)

*O'sish sur'ati,  
%da*




*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	26,6	109,4
Olmaliq shahar	33,5	118,0
Angren shahar	22,7	113,1
Bekobod shahar	27,8	115,0
Ohangaron shahar	5,0	111,7
Chirchiq shahar	37,2	112,2
Yangiyo'l shahar	13,1	111,2
Oqqo'rg'on tumani	5,3	111,0
Ohangaron tumani	1,5	111,6
Bekobod tumani	4,6	112,8
Bo'stonliq tumani	103,0	118,7
Bo'ka tumani	3,0	110,8
Quyichirchiq tumani	3,0	115,9
Zangiota tumani	129,6	117,5
Yuqori Chirchiq tumani	11,8	117,7
Qibray tumani	36,0	102,4
Parkent tumani	4,1	113,4
Piskent tumani	1,7	110,7
O'rta Chirchiq tumani	22,2	113,9
Chinoz tumani	18,3	115,4
Yangiyo'l tumani	19,8	110,8
Toshkent tumani	129,3	118,0



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-dekabr)



### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022-yil yanvar-dekabr)



■ Hajm, mlrd. so'm

○ O'sish sur'ati, %da



Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
<b>Toshkent viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>25 994,9</b>	<b>113,2</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	1 099,0	111,0
Olmaliq	1 934,3	119,7
Angren	1 705,0	114,7
Bekobod	1 258,8	116,6
Ohangaron	525,7	113,3
Chirchiq	2 178,3	113,8
Yangiyo'l	1 164,1	112,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	685,4	112,6
Ohangaron	390,0	113,2
Bekobod	768,9	114,4
Bo'stonliq	1 689,8	120,4

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda





Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Bo'ka	712,8	112,4
Quyi Chirchiq	615,5	117,5
Zangiota	2 679,3	119,2
Yuqori Chirchiq	1 045,7	119,4
Qibray	1 791,2	84,8
Parkent	1 000,9	115,0
Piskent	411,5	112,3
O'rta Chirchiq	878,7	115,6
Chinoz	740,3	117,1
Yangiyo'l	1 232,4	112,4
Toshkent	1 487,3	119,7

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari  
(yanvar-dekabr)**


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 763,7** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,2** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **7 271,9** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,  
%da**




**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Nurafshon shahrida **20 580,1** ming so'mdan Ohangaron tumanida **3 607,3** ming so'mgachani tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**  
(2022- yil yanvar-dekabr)





**2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



**2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






**2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari  
to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari  
(yanvar-dekabr)**



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 71-202-86-72